

**INSON HUQUQLARI BO‘YICHA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MILLIY MARKAZI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.39/30.11.2020. Yu/S. 128.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
AKADEMIYASI**

YESEMURATOV ALISHER IZBASAROVICH

**MIGRANTLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING
XALQARO VA MILLIY MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

12.00.13 – Inson huquqlari

**Yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
юридическим наукам**

**Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)
on science in law**

Yesemuratov Alisher Izbasarovich

Migrantlar huquqlarini himoya qilishning xalqaro va milliy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari.....3

Esemuratov Alisher Izbasarovich

Issues of improving international and national mechanisms for protecting the rights of migrants.....23

Есемуратов Алишер Избасрович

Вопросы совершенствования международных и национальных механизмов защиты прав мигрантов.....41

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 45

**INSON HUQUQLARI BO‘YICHA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MILLIY MARKAZI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.39/30.11.2020. Yu/S. 128.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
AKADEMIYASI**

YESEMURATOV ALISHER IZBASAROVICH

**MIGRANTLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING
XALQARO VA MILLIY MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

12.00.13 – Inson huquqlari

**Yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Yu828 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.nhrc.uz/oz/menu/avtoreferat) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Isoqov Luxmonjon Xolboyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Turgunov Murodjon Tursunbayevich
yuridik fanlar doktori, dotsent

Yuldashev Djaxongir Xayitovich
yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Dissertatsiya himoyasi Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.39/30.11.2020.Yu/S.128.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 24-dekabr kuni soat 15-00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100029, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 15. Tel.: (99871) 239-13-58; faks: (99871) 239-43-39; e-mail: info@nhrc.uz).

Dissertatsiya bilan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (7-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100029, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 15.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 12-dekabr kuni tarqatildi.

(2024-yil 12-dekabrda 7-raqamli reyestr bayonnomasi).



[Signature]
M.A. Tillabayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

[Signature]
O.S. Ochilov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar doktori, dotsent

[Signature]
A.A. Tulyaganov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda globalashuv jarayonining kuchayishi bilan, migratsiya jarayonlari ham tobora jadallashib bormoqda. Odamlar ishlash, o‘qish, yashash va boshqa maqsadlarda turli davlatlarga ko‘chib o‘tishmoqda. Migratsiya bo‘yicha xalqaro tashkilotning ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda dunyoda 281 milliondan ortiq migrant mavjud bo‘lib, ushbu raqam jahon aholisining taxminan 3,6 foizini tashkil qiladi¹.

Migrantlarning qariyb 60 foizi o‘zlari ishlayotgan mamlakatlarda huquqiy masalalar bilan bog‘liq muammolarga ega. 2021-yilda Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudining ish yurituvida 70 mingdan ziyod shikoyatlarning yarmidan ko‘pi migrantlar qabul qiluvchi yirik mamlakatlardan kelib tushgan. Mazkur murojaatlarning 18 foizini shaxs daxlsizligi va erkinligiga hamda 19 foizini qiynoqlarga doir ishlar tashkil qilgan².

Ko‘plab davlatlar migrantlar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha xalqaro konvensiya va kelishuvlarga qo‘shilgan. Buning natijasida, ushbu davlatlar o‘z majburiyatlarini bajarishlari va migrantlar huquqlarini ta’minlash uchun milliy qonunlarni ishlab chiqishlari taqozo etiladi.

Jahonda migrantlar mehnat bozorini to‘ldirib, iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlaydilar va o‘z mamlakatlari iqtisodiga yiliga 3 trillion AQSH dollaridan ortiq hissa qo‘shadilar³. Zero, ularning huquqlarini himoya qilish nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash uchun, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va tinchlikni saqlashga yordam beradi. Har bir inson, shu jumladan, migrantlar ham, insoniy qadrdimmatga ega. Biroq migrantlarning aksariyat qismi irqchilik va boshqa shakldagi turli kamsitishlarga yanada ko‘proq duch kelmoqda.

Xalqaro mehnat tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda majburiy mehnat qurboniga aylanayotgan taxminan 24,9 million nafar shaxsdan 16 milliondan ortig‘i mehnat migrantlari hisoblanadi⁴. Qolaversa, ularning 20 foizga yaqini ta’lim va tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatidan mahrum etilgan⁵. Migrantlarga nisbatan adolatli va insonparvar munosabatda bo‘lish jamiyatning umumiy axloqiy qoidalarining muhim shartidir. Bu esa, mazkur yo‘nalishda fundamental tadqiqotlar o‘tkazishga undaydi.

O‘zbekistondan noqonuniy migrantlarning xorijdagi soni oshgani kuzatilgan. 2023-yilda Turkiyada - 9649 nafar, Gondurasda - 5153 nafar, Meksikada - 6098

¹ World Migration Report 2024 // Elektron manba: <https://worldmigrationreport.iom.int/msite/wmr-2024-interactive/> (Murojaat sanasi: 21.02.2024).

² La cour européenne des droits de l’homme en faits et chiffres. Strasbourg: CEDH, 2022. – P. 3, 7.

³ How Immigrants Contribute to Developing Countries’ Economies // Elektron manba: <https://www.oecd-ilibrary.org/docserver/9789264288737-en.pdf?expires=1721800832&id=id&accname=guest&checksum=6BADC976AA7BA521783068F819A3D3F7> (Murojaat sanasi: 17.03.2024).

⁴ International Labour Organization // Elektron manba: <https://www.ilo.org/publications/eliminating-forced-labour-handbook-parliamentarians-no-30> (Murojaat sanasi: 13.01.2024).

⁵ World Health Organization // <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/refugee-and-migrant-health> (Murojaat sanasi: 25.01.2024).

nafar, 2022-yilda Yevropa Ittifoqi davlatlarida 2145 - nafar¹ noqonuniy migrantlar va 2021-2023-yillar AQSH chegarasini noqonuniy kesib o‘tayotgan 13 ming ortiq O‘zbekiston fuqarosi aniqlangan².

O‘zbekistonda 2023-yilda xorijdan ko‘chib kelganlar soni 2955 nafarni, xorijga ko‘chib ketganlar soni esa, 17336 nafarni tashkil etdi³. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning: “...2 mln atrofidagi yurtdoshlarimiz ro‘zg‘orini tebratish uchun oilasi, ota-onasi va farzandlaridan uzoqda – xorijda mehnat qilmoqda. Albatta, musofir yurtda, turli qiyinchilik va mashaqqatlarga chidab, halol mehnat qilib, non topish oson emas. Xorijda bunday sharoitda yashab kelayotgan odamlarimizni haqiqiy qahramon desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Chet ellarda tajriba va malaka orttirayotgan ana shunday vatandoshlarimizga rahmat aytishimiz kerak”⁴, deb ta’kidlagani migrantlar huquqlarini himoya qilishning xalqaro va milliy mexanizmlarini yanada takomillashtirishni taqozo etadi. Qolaversa, «O‘zbekiston — 2030» Strategiyasining 95-maqsadida tashqi mehnat migratsiyasi tizimini takomillashtirish, xorijda mehnat faoliyatini yuritayotgan fuqarolarga har tomonlama ko‘mak ko‘rsatilishi belgilangan⁵. Shu sababli ham ushbu mavzuni chuqur tadqiq etish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquqiy holati to‘g‘risida”gi (2021) Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi (2022), «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi, (2023), “Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va ularning oila a‘zolarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish choralari to‘g‘risida”gi (2019), “Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2024), “Migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini isloh qilish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2024) farmonlari hamda “Xorijga tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasiga ketayotgan fuqarolarni rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2021), “Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2020), “Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish jarayonlarini tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi (2024) qarorlari va boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlashda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ World Migration Report 2024 // Elektron manba: <https://worldmigrationreport.iom.int/msite/wmr-2024-interactive/> (Murojaat sanasi: 21.02.2024).

² В США за два года задержали более 13 тысяч граждан Узбекистана при попытке нелегального въезда // <https://www.gazeta.uz/ru/2023/10/13/us-border/>

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi - Demografik holat // Elektron manba: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2> (Murojaat sanasi: 23.07.2024).

⁴ Mirziyoyev Sh.M. «Ular — haqiqiy qahramon» // <https://www.gazeta.uz/uz/2023/06/23/migrants/> (Murojaat sanasi: 25.01.2024).

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni. // <https://lex.uz/ru/docs/6600413>. (Murojaat sanasi: 25.01.2024).

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekistonda migrantlar huquqlarini himoya qilish bilan bog‘liq izlanishlar quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilgan:

birinchidan, migrantlarning inson huquqlariga doir konseptual va strategik g‘oyalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning asarlarida yoritib berilgan;

ikkinchidan, o‘zbekistonlik olimlar orasida inson huquqlarining umumiy nazariyasi K.X.Abduraxmanov, A.R.Mo‘minov, T.K.Narbayeva, M.X.Raxmankulov, A.X.Saidov, L.A.Saidova, M.A.Tillabayev, A.A.Tulyaganov, I.T.Turg‘unov, M.T.Turg‘unov, X.M.Yunusov va A.B.G‘afurov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

uchinchidan, K.Sh.Aripova, S.A.Gafurova, S.Dj.Djoldasova, L.X.Isoqov, S.A.Ishanxodjayev, B.T.Musayev, M.A.Rahimova, I.V.Samiyev, M.A.Tillabayev, R.R.Urinboyev, B.I.Egamberdiyev, Sh.Eraliyev, Dj.X.Yuldashev, G.Yuldasheva¹ kabi olimlarning asarlarida migrantlar huquqlarini himoya qilishning ayrim xususiyatlari ochib berilgan. Jumaladan, A.A.Allanova migratsiya qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik muammosini tahlil qilgan bo‘lsa, S.Dj.Djoldasovaning ilmiy izlanishlarida migratsiya sohasini huquqiy tartibga solish hamda S.A.Ishanxodjayev migratsiya sohasidagi davlatlararo hamkorlikning xalqaro-huquqiy jihatlari, shuningdek, L.X.Isoqov O‘zbekiston Respublikasida migrantlar huquqlarini himoya qilishning qiyosiy-huquqiy tahliliga doir masalalarni ko‘rib chiqishgan.

Xorijiy davlatlarining huquqiy adabiyotlarida migrantlar huquqlarini ta‘minlash va himoya qilishning ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy-huquqiy tomonlariga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bu yo‘nalishga: Bryan A. Garner, V.Chetail, G.Goodwin-Gill, H.Friedrich, Jean Matringe, Lilana Keith, Katja Swider, Michele LeVoy, David Weissbrodt, A.X.Abashidze, D.K.Bekyashev, M.M.Babayev, R.Sh.Davletgeldiev, V.A.Ionsev, D.V.Ivanov, R.A.Kalamkaryan, I.I.Lukashuk, S.V.Martinenko, Ye.A.Nikiforova, V.I.Perevedensev, V.V.Reshetin, L.L.Ribakovskiy, G.I. Tunkin, M.L.Tyurkin va A.Yastrebeva kabi zamonaviy olimlarning tadqiqotlari misol bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, tanlangan mavzu bo‘yicha nazariy-huquqiy muammolar migrantlar huquqlarini himoya qilish tizimidagi milliy va xalqaro mexanizmlar, milliy qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyoti, xalqaro huquq me‘yorlari hamda xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini inobatga olgan holda inson huquqlari nuqtayi nazardan alohida monografik tadqiq etilmagan.

¹ Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan "Migrantlar huquqlarini himoya qilishning xalqaro va milliy mexanizmlari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi migrantlar huquqlarini himoya qilishning xalqaro va milliy mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“migratsiya” va “migrant” atamalarining yuridik tabiatini tahlil etish;

migrantlar huquqlarining shakllanishi va rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish, mazkur masalaga oid muammolarni aniqlash va umumlashtirish;

zamonaviy yondashuvlarni tadqiq etish orqali migrantlar huquqlarini himoya qilishning zamonaviy konsepsiyalarini asoslash;

migrantlar huquqlarini himoya qilishga oid xalqaro-huquqiy standartlarning xususiyatlarini tavsiflash va tasniflash;

migrantlar huquqlarini himoya qilishga ixtisoslashgan institutsional mexanizmlarni tahlil etish;

migrantlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish va milliy amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini ko'rib chiqish;

O'zbekistonda migrantlar huquqlarini himoya qilishning dolzarb muammolarini aniqlash hamda ularning yechimiga doir takliflari ishlab chiqish;

migrantlar huquqlarini himoya qilishning xalqaro va milliy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar va tavsiyalarni shakllantirish.

Tadqiqotning obyekti migrantlar huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlardan iborat.

Tadqiqotning predmetini migrantlar huquqlarini himoya qilish faoliyati bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi me'yorlar, ilmiy-konseptual yondashuvlar, qarashlar, prinsiplar, modellar, shakl va usullar, qoidalar, shuningdek, ularning amaliyotda joriy etilishi tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida analiz, sintez, deduksiya, induksiya, qiyosiy-huquqiy tahlil, empirik material va statistik ma'lumotlar tahlili, sotsiologik so'rov, kuzatish, tizimli yondashuv, mantiqiylik va boshqa usullardan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijda ishga joylashtirish va ularning mehnat huquqlarini ta'minlash jarayonlarini tartibga solishga doir masalalar yuzasidan xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan o'zaro hamkorlik qilish zarurati asoslab berilgan;

migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirishga oid davlat xizmatlari yashash joyida ko'rsatilishini istagan fuqarolar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va immigratlar (chet el fuqarolari, fuqaroligi yo'q shaxslar va ularning

qonuniy vakillari) ham, bunday xizmatlardan foydalanish uchun “Call-markaz”ga murojaat qilishlari mumkinligi isbotlab berilgan;

“Yoshlar daftari”ga kiritilgan yosh migrantlarni dehqon xo’jaligini yuritish uchun yer uchastkalarini ijaraga berish tartibni joriy etishlari yosh mehnat migrantlarining tadbirkorlik bilan shug’ullanish imkoniyatlarini kengaytirilishi asoslantirilgan.

Xorijdan qaytib kelgan mehnat migrantlari ro’yxatiga kiritilgan yoshlarga ochiq elektron tanlov orqali ularga yer uchastkalarini ajratishda soddalashtirilgan tartibni joriy etishlari xorijdan qaytib kelgan mehnat migrantlarining tadbirkorlik sohasida reintegratsiyasi uchun qulay sharoit yaratilishi isbotlab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasining milliy migratsiya qonunchiligini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadigan “migratsiya” va “migrant” kabi tushunchalarga mualliflik ta’rifi berilgan;

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat qonunchiligiga “noqonuniy migratsiya” uchun javobgarlik masalasini kiritish maqsadga muvofiqligi asoslantirildi;

huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining huquqiy madaniyatini yanada oshirish, bilim va malakalarini boyitish, kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlash uchun migrantlarning huquqlarini himoya qilishning milliy va xalqaro mexanizmlarining o‘qitilishi lozimligi asoslantirilgan;

Migratsiya bo‘yicha global shartnoma maqsadlariga O‘zbekiston Respublikasida erishish bo‘yicha 2024-2030 yillarga mo‘ljallangan Milliy harakatlar rejasi O‘zbekiston Respublikasining migratsion rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish zarurati ilmiy asoslantirilgan;

Migratsiya bo‘yicha global shartnoma maqsadlariga O‘zbekiston Respublikasida erishish bo‘yicha 2024-2030 yillarga mo‘ljallangan Milliy harakatlar rejasi ijrosi yuzasidan “yo‘l xaritasi” ni qabul qilish isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy izlanish natijalari xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalariga taynilgan, ilg‘or xorijiy tajribalar, huquqni qo‘llash amaliyoti, rasmiy manbalardan olingan nazariy qarashlar va metodologik yondashuvlar umumlashtirilgani, sotsiologik so‘rovda 75 nafar prokuratura organlari, 70 nafar ichki ishlar organlari, 60 nafar migratsiya agentligi, 76 nafar nodavlat notijorat tashkiloti xodimlari ishtirok etganligi hamda empirik materiallarga asoslanilgani, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgani, xulosa, taklif hamda tavsiyalar aprotatsiyadan o‘tkazilib, natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e‘lon qilingani olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalardan migrantlar huquqlarini himoya qilishning xorijiy va milliy mexanizmlari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borishda, qonun ijodkorligi, inson huquqlariga oid qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirish, “Konstitutsiyaviy huquq”, “Ma’muriy huquq”, “Inson huquqlari” va “Migratsiya huquqi” kabi fanlarni ilmiy-nazariy jihatdan boyitishda, O‘zbekistonda “Migrantlarning inson huquqlari” fanini shakllantirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan tavsiya va xulosalarning amaliy ahamiyati ularning joriy etilishi migrantlar huquqlarini himoya qilishning xalqaro va milliy mexanizmlarini takomillashtirish, mazkur sohada inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, shuningdek, davlatning migrantlar huquqlarini himoya qilish bilan bog‘liq muammolarni hal etishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Migrantlar huquqlarini himoya qilishning xalqaro va milliy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijda ishga joylashtirish va ularning mehnat huquqlarini ta‘minlash jarayonlarini tartibga solishga doir masalalar yuzasidan xorijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan o‘zaro hamkorlik qilish haqidagi taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-apreldagi PF-59-son Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi, Vazirlar Mahkamasining Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari bo‘limi va O‘zbekiston Respublikasining diplomatik va konsullik muassasalaridagi mehnat migratsiyasi masalalari bo‘yicha attashe faoliyatini tashkil etish tartibining 1.4-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining 2024-yil 18-maydagi 03/01-07/4204-1-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ushbu taklifning joriy etilishi mehnat migratsiyasi sohasidagi xalqaro hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qilgan;

migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirishga oid davlat xizmatlari yashash joyida ko‘rsatilishini istagan fuqarolar, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va immigrantlar (chet el fuqarolari, fuqaroligi yo‘q shaxslar va ularning qonuniy vakillari) ham, bunday xizmatlardan foydalanish uchun “Call-markaz”ga murojaat etish haqidagi taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-iyuldagi 321-son Qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning yashash joyiga borib, migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning” ma‘muriy reglamentining 11-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyatining 2024-yil 26-sentyabrdagi 12/1-390-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ushbu taklifning joriy etilishi mamlakatimizdagi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda migratsiya sohasidagi davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini yaratishga asos bo‘lgan;

“Yoshlar daftari”ga kiritilgan yosh migrantlarni dehqon xo‘jaligini yuritish uchun yer uchastkalarini ochiq elektron tanlov orqali ijaraga berish haqidagi taklifi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yildagi 28-iyuldagi 320-son Qarorining 1-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyatining 2024-yil 26-sentyabrdagi 12/1-390-son ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi natijasida xorijdan qaytib kelgan “Yoshlar daftari”ga kiritilgan mehnat migrantlarining tadbirkorlik bilan shug‘ullanishlari uchun imkoniyat yaratgan;

xorijdan qaytib kelgan mehnat migrantlari ro'yxatiga kiritilgan yoshlarga ochiq elektron tanlov orqali ularga yer uchastkalarini ajratishda soddalashtirilgan tartibni joriy etish haqidagi taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yildagi 28-iyuldagi 320-son Qarorining 1-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyatining 2024-yil 26-sentyabrdagi 12/1-390-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi natijasida xorijdan qaytib kelgan mehnat migrantlarining tadbirkorlik sohasida reintegratsiyasi uchun qulay sharoit yaratilishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqotining asosiy mazmuni va ilmiy natijalari 5 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 3 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya, davra suhbatlari va seminarlarda sinovdan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 12 ta, jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma va dissertatsiyaning asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 6 ta (shundan 2 tasi xorijda) maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, sakkiz paragrafni o'z ichiga olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalardan iborat. Ishning hajmi 148 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot rejaları ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt hamda predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi hamda e'lon qilinganligi, dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmiga doir ma'lumatlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Migrantlar huquqlarini himoya qilishning nazariy jihatları**" deb nomlanib, unda mavzuning ilmiy-nazariy jihatları, xususan, "migratsiya" va "migrant" atamalarining yuridik tabiati, migrantlar huquqlarining shakllanishi va rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslari kompleks tadqiq etilgan.

Mazkur bobning "*Migratsiya*" va "*migrant*" atamalarining yuridik tabiati" ga bag'ishlangan birinchi paragrafida O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlarida "migratsiya", "noqonuniy migratsiya" va "migrant" atamasining ta'rifi berilmaganligi asosiy ilmiy muammo sifatida batafsil o'rganilgan.

Olimlar: K.X.Abduraxmanov, M.M.Babayev, V.M.Baranov, D.K.Bekyashev, Bryan A. Garner, H.Friedrich, S.Dj.Djoldasova, R.Sh.Davletgeldiev, D.V.Ivanov, V.A.Ionsev, L.X.Isoqov, S.V.Martinenko, V.M.Moisenko, V.A.Korabeyev, Yu.A.Kuzmenko, Ye.S.Krasines, V.I.Perevedensev, A.X.Saidov, L.L.Ribakovskiy, E.Orifjonov, A.Otajanov, M.L.Tyurkin, D.Umaraxonova, A.N.Shkilev va B.I.Egamberdiyevlarning "migratsiya", "noqonuniy migratsiya" va "migrant" institutlarining yuridik tabiati haqidagi qarashları tahlil etilib, migrant huquqiy

maqomining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Dissertant tomonidan qilingan tahlillar natijasida ushbu tushunchalarga mualliflik ta'riflari ishlab chiqilgan.

V.I. Perevedensev migratsiyani keng, ma'noda, aholining dunyodagi barcha harakatlarining yig'indisi, deb tushunadi. Tor ma'noda esa, odamlarning ko'chishlari majmui, ya'ni ularning yashash joyini nisbatan uzoq vaqt davomida o'zgartirishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan hudud bo'ylab shunday harakatlarni nazarda tutishiga urg'u bergan.

Muallif M.M. Babayev tomonidan migratsiya – odamlarning yashash joyi o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan hududiy harakatlanishi sifatida, B.I. Egamberdiyev tomonidan, ma'muriy hududlarga ko'chib kelgan va ko'chib ketgan aholining demografik tarkibini o'zgartiruvchi muhim omil sifatida, boshqa olimlar tomonidan esa, aholining kelishi, ketishi, bo'lishi va tranzit o'tishi kabi ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni shakllantiruvchi jarayon sifatida izohlanganligini qayd etib, migratsiya va unga bog'liq ilmiy tushunchalarning mohiyatiga oid yaxlit hamda yagona qarashlar hali-hamon shakllanmaganligini ko'rsatib o'tgan.

Hozirgi kungacha xalqaro huquqda “migrant” atamasining aniq va umumiy qabul qilingan ta'rifi mavjud emas. Shu bilan birga, BMT migratsiya sabablari yoki qonuniy/noqonuniy maqomiga qaramasdan, mehnat migrantini xorijiy davlatda bir yildan ortiq muddat davomida istiqomat qilayotgan shaxs sifatida ta'riflaydi.

1989-yilda Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilot “migratsiya” tushunchasini aniqlashga harakat qilgan. Uning 59-sessiyasida “migratsiya” va “migrant” tushunchalari belgilab berilgan, unga ko'ra, migrant — bir davlatdan boshqasiga ko'chib o'tgan va xalqaro migratsiya xizmatlariga muhtoj bo'lgan shaxs hisoblanadi.

O'tgan davr mobaynida noqonuniy migratsiya masalasi xalqaro huquq va milliy qonunlarda turlicha talqin qilingan. 1998-yilda MDHga a'zo davlatlar o'rtasida “Noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashda hamkorlik to'g'risida”gi bitimning 1-moddasida “noqonuniy migratsiya” tushunchasi muhokama qilingan.

Noqonuniy migratsiya jamiyat va iqtisodiy jarayonlarga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi keng ko'lamli hodisa bo'lganligi sababli, dissertant tomonidan O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish uchun “noqonuniy migratsiya” va “noqonuniy migrant” tushunchalariga aniq ta'rif berish zarurati asoslantirilgan.

Bu borada Fridrix Xekman o'z asarlarida yagona atamani tanlash bo'yicha munozaralar hamon davom etayotganini, Brayan A. Garnerning esa, zamonaviy yuridik lug'atga ko'ra, “noqonuniy” va “nolegal” so'zlari to'liq sinonim bo'lib, qonunlarga rioya qilmaslik va tartibsizlikni anglatishini ko'rsatgan.

Ko'pchilik olimlarning fikricha, “nolegal” atamasi jinoyatchilikni o'z ichiga oladi hamda uni qo'llash mumkin emas. Chunki, mazkur tushuncha bilan migrantlarning “noqonuniy” deb belgilanishi natijasida, ularning huquqlariga zarar yetkazishi mumkin.

Qochoqlarni noqonuniy migrant sifatida tasniflash ularning qochoqlik maqomini olish uchun ariza topshirish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, fan va yuridik adabiyotlarda “noqonuniy migratsiya” atamasini, asosan, odam savdosi yoki migrantlarni qonunsiz olib o'tishga qo'llash tendensiyasi mavjud. Ko'plab zamonaviy tadqiqotchilar insonlarni qonundan tashqarida

(noqonuniy) bo'lishi mumkin emasligini, ushbu atama faqatgina normativ-huquqiy hujjatlarga tegishli ekanligini ta'kidlaydilar.

1994-yilda BMT tomonidan Aholi rivojlanishi bo'yicha xalqaro konferensiya o'tkazildi, unda "hujjatsiz" yoki "noqonuniy" migratsiya atamalarini qo'llash tavsiya etildi. Lekin, bu atamalarni keng qamrovli deb qabul qilmaslik kerak. Chunki ular qabul qiluvchi davlatlarga qonuniy ravishda kirib, keyin qonunchilikni buzgan migrantlarni qamrab olmaydi. Shu bilan birga, noqonuniy migrantlar toifasiga davlat hududiga kirish qoidalariga rioya qilgan holda kelgan, lekin noqonuniy ravishda yashayotgan shaxslar ham kirishi lozimligi ko'rsatilgan.

Mazkur paragraf doirasida *migratsiya*, *migrant*, *noqonuniy migrant*, *noqonuniy migratsiya* kabi atamalar bo'yicha mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan. Ushbu tushunchalar migratsiya sohasi mutaxassisleri o'rtasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rov natijalari bilan tasdiqlangan (sotsiologik so'rovda qatnashgan respondentlarning 55 foizdan ko'pi ushbu tushunchalar aynan shu mazmunda talqin qilinishini ma'qullagan).

"*Migrantlar huquqlari shakllanishi va rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslari*" deb nomlangan ikkinchi paragrafda migratsiyaning turli ta'riflari tahlil qilinib, uning turlari va tasnifiga oid yondashuvlar, migratsiyaning asosiy prinsiplari va munosabatlarini tartibga solish mexanizmlari chuqur tadqiq qilingan.

Dissertantning fikricha, "migratsiya" va "migrantlar" tushunchalari ta'riflari 3 guruhga bo'lib tasniflanadi. Birinchi guruhga (V.M. Moisenko, M.L. Tyurkin) aholi harakatining turli ko'rinishlari va ularning oqibatlarini hisobga olishga asoslangan ta'riflar kiradi.

Ta'riflarning ikkinchi guruhiga ko'ra, migratsiyada – birinchi navbatda, hududiy harakat ustunlik qiladi, uning sabablari va maqsadlari muhim emas, ammo qo'shimcha xususiyatlar istisno etilmaydi. Huquqshunos olim M.M. Babayev migratsiyani keng va tor ma'noda ko'rgan. Keng ma'noda, odamlarning hududdagi har qanday harakati tushunilgan. Tor ma'noda esa, migratsiya aholining yashash joyining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan hududiy harakati sifatida talqin etilgan.

Uchinchi guruh olimlarining ta'riflarida (V.I. Perevedensev va boshq.) aholining harakati haqida emas, balki harakatga bo'lgan muayyan makondagi ko'chish haqida gap borada. Migratsiyaning ushbu ta'riflari prinsipial jihatdan o'xshash va ma'lum xususiyatlarni aniqlashda farqlanadi.

S.V. Ryazansev noqonuniy mehnat migratsiyasining kelib chiqishi sabablarini: globallasuv, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, ya'ni migratsiya tajribasining yo'qligi, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilishga oid qonunlarning zaiflashishi, migratsiya oqimini legallashtirish choralari yetishmasligi kabilar bilan asoslab beradi.

Shu o'rinda, dissertant tomonidan migratsiyaning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jihatlarini ko'rib chiqish va hozirgi bosqichda migratsiya siyosatini tahlil qilish juda muhimligi ta'kidlangan.

Tadqiqot natijasida migrantlar huquqlarini himoya qilishning milliy mexanizmlari: qonunchilikka asoslangan, institutsional, odil sudlov va adliya hamda fuqarolik jamiyatining mezonlariga tasniflandi.

Migrantlar huquqlarini himoya qilishning xalqaro mexanizmlari xalqaro normalarga asoslangan, xalqaro institutsional va xalqaro nodavlat hamda fuqarolik jamiyati tashkilotlari mezonlariga ko'ra tasniflandi.

Birinchi bobning "*Migrantlar huquqlarini himoya qilishning zamonaviy konsepsiyalari*" nomli uchinchi paragrafida shaxs huquqlarining migratsiya huquqining xalqaro va milliy huquq tizimidagi o'rni, uning huquqshunoslik nazariyasidagi mavqei va unga oid turli yondashuvlar kompleks tadqiq etilgan.

Tadqiqotda migratsiya jarayonlarining huquqiy tartibga solinishi murakkab va dolzarb masala bo'lib, bugungi kunda turli davlatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan alohida e'tibor qaratilayotganligi, migrantlarning huquqlarini himoya qilish, shuningdek, davlatlarning suveren huquqlari bilan birlashtirilgan mexanizmlarni shakllantirish bu sohada muhim vazifalardan biri ekanligi isbotlangan.

G.Gudvin-Gill va boshqa olimlar migratsiya huquqini murakkab va ko'pqirrali tizim sifatida ko'rish zarurligini ta'kidlaganlar. Ular migratsiya huquqini mustaqil huquq sohasi sifatida shakllantirish orqali uning amaliy ahamiyatini oshirishga chaqirganlar. Biroq, ayrim olimlar migratsiyani ma'muriy huquqning bir qismi sifatida qarashni taklif etishmoqda.

Tadqiqotda migratsiya boshqaruvida zamonaviy texnologiyalar asosida intellektual va muvozanatli yondashuvlarning ahamiyati, chet el fuqarolarining mahalliy fuqarolar bilan teng huquqlarini ta'minlash zarurati, shuningdek, migrantlarning huquqiy maqomi va jamiyatga integratsiyasini tartibga soluvchi mexanizmlarning muhimligi qayd etiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Migrantlar huquqlarini himoya qilishning xalqaro mexanizmlari tahlili**" deb nomlanib, unda migrantlar huquqlarini himoya qilishga oid xalqaro-huquqiy standartlar tahlil qilinib, migratsiyani tartibga solishga qaratilgan xalqaro hamda mintaqaviy mexanizmlar tadqiq etilgan.

Ushbu bobning "*Migrantlar huquqlarini himoya qilishga oid xalqaro-huquqiy standartlar xususiyatlari*" deb nomlangan birinchi paragrafida BMT kabi xalqaro tashkilotlarning migrantlarni himoya qilishga doir huquqiy normalar, Yevropa, Amerika va MDH mintaqalarda migratsiyani tartibga solishdagi o'ziga xosliklar tahlil qilingan.

Migratsiyani tartibga solishning xalqaro-huquqiy mexanizmlari davlatlararo hamkorlikka asoslanib, inson harakatlarini boshqarish tizimida muhim o'rin tutadi.

Tadqiqotda migratsiya bilan bog'liq jarayonlar murakkab va ko'pqirrali bo'lib, bu sohada xalqaro shartnomalar asosiy vosita sifatida e'tirof etiladi, chunki ular xalqaro huquq subyektlari uchun majburiy kuchga egaligi va xalqaro huquqda shartnomalarning ustun mavqei va davlatlarning ushbu shartnomaviy usulga katta e'tibor qaratishi ta'kidlanadi. Shu tariqa, xalqaro shartnomalar migratsiyani tartibga solishda asosiy o'rin egallaydi va huquqiy tizimlarning uyg'unlashuviga xizmat qiladi.

Migratsiya sohasida xalqaro va ma'muriy-huquqiy tizimlar migratsiya jarayonlarini samarali boshqarishda muhim ahamiyatga ega. BMTning 1990-yildagi Barcha mehnatkash-migrantlar va ularning oila a'zolarini himoya qilish to'g'risidagi Konvensiyasi migrantlarning ijtimoiy va siyosiy huquqlarini kafolatlaydi. Shu bilan

birga, 1948-yildagi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 13 va 14-moddalari insonlarning harakatlanish va boshpana izlash huquqini mustahkamlaydi.

Dissertatsiyada migratsiyani xalqaro-huquqiy tartibga solishning universal modeli mavjud emasligi, “qochoq” va “migrantlar” tushunchalarini kengaytirish hamda migrantlar huquqlarini himoya qilishda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish dolzarbligi asoslantirilgan. Zero, davlatlarning milliy qonunchiligi xalqaro huquqiy normalarni amaliyotda qo‘llashda muhim o‘rin tutadi. Shu bois, ishda migratsiyani samarali boshqarish uchun yangi huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilishi zarurligi haqida xulosa qilingan.

Mazkur bobning *“Migrantlar huquqlarini himoya qilishga ixtisoslashgan institutsional mexanizmlar”* deb nomlangan ikkinchi paragrafida xalqaro migratsiya bilan bog‘liq masalalarni hal qilish uchun ixtisoslashgan institutlar va mexanizmlar tahlil qilingan.

Hozirgi vaqtda xalqaro migratsiya bilan bog‘liq barcha masalalarni qamrab oladigan yoki ular bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi yagona xalqaro tashkilot mavjud emas. Migratsiya muammolarini konstruktiv hal qilish asoslari Ikkinchi jahon urushidan so‘ng shakllangan bo‘lsa-da, hanuz bu jarayonga ta’sir qiluvchi ko‘plab omillar va muammolar mavjudligiga tadqiqotda alohida urg‘u berilgan.

BMT Xavfsizlik Kengashi migrantlar va qochoqlar huquqlarini himoya qilish masalalariga katta e’tibor qaratmoqda. Xavfsizlik Kengashi qochoqlar va inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta’minlashga intiladi. Biroq, qonunchilikdagi huquqiy bo‘shliq va kamchiliklar, majburiy migrantlar muammolarini hal qilish jarayonida xalqaro hamkorlikning yetishmasligi turli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Dissertantning fikricha, Xalqaro migratsiyani boshqarishda UNHCR va Migratsiya bo‘yicha xalqaro tashkilot muhim rol o‘ynaydi, biroq migratsiya sohasida hal etilmagan muammolar hanuz mavjud. Yevropa Ittifoqi, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar migratsiya va qochoqlar masalalarida faoliyat olib bormoqda, ammo butun dunyoni qamrab oladigan yagona muvofiqlashtiruvchi mexanizmning yo‘qligi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Milliy va xalqaro qonunchilikni uyg‘unlashtirish, migrantlar va qochoqlar huquqlarini himoya qilishda yangi mexanizmlarni joriy etish zarur. Shunday qilib, migratsiya sohasida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish uchun xalqaro me’yorlarni yanada takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchi bobning *“Migrantlar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha xorijiy davlatlar tajribasining qiyosiy-huquqiy tahlili”* deb nomlangan uchinchi paragrafida dunyo davlatlarida migratsiya va uni tartibga solish bo‘yicha milliy qonunchilikning turlicha shakllanganligi o‘rganilib, bu borada har bir davlatning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

So‘nggi o‘n yillikda xorijiy mamlakatlarda migratsiya munosabatlarini tartibga soluvchi qonunlar qabul qilindi. Migratsiyani tartibga solish har bir davlatning o‘ziga xos iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlariga bog‘liq. Anglo-sakson tizimidagi davlatlarda (AQSH, Kanada, Avstraliya) migratsiya qonunchiligi tarqoq bo‘lib, asosan, migrantlarni jalb qilishga qaratilgan, romano-german huquq tizimidagi Germaniya va Fransiyada esa, qonunlar yaxlit holda.

Germaniya noqonuniy migratsiyaga qarshi kurash choralarini kuchaytirgan. Niderlandiyada noqonuniy migratsiyaga yordam berish jinoiy javobgarlikka sabab bo‘ladi. Yaponiya chet elliklarning mamlakatda noqonuniy bo‘lishining oldini olishga alohida e’tibor qaratadi, deb qayd etadi.

Buyuk Britaniyada migratsiyani boshqarishda qat’iy tartibot mavjud. U yerda migrantlar guruhlarini aniqlash va malakali ishchilarni tanlash tizimi joriy etilgan. AQSHda esa, noqonuniy migratsiyani cheklash maqsadida, “Immigratsiya islohoti va nazorati to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilingan hamda unda noqonuniy migrantlarning mehnat bozoridagi ishtiroki cheklanib, ish beruvchilar uchun katta jarimalar belgilangan.

Dissertantning fikricha, migratsiya qonunchiligi har bir davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va demografik manfaatlariga bog‘liq. Anglo-sakson va romano-german davlatlari o‘rtasida qonunchilikning tizimlashtirilishida farqlar mavjud bo‘lsa-da, barcha davlatlarda noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish choralari kuchaytirilmoqda.

Shuningdek, migratsiya qonunchiligini yaxshilash uchun huquqiy normalarni uyg‘unlashtirish va inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro mexanizmlarni takomillashtirish zarur.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda migrantlar huquqlarini himoya qilishning milliy mexanizmlari tavsifi”** deb nomlangan uchinchi bobida O‘zbekistonda migrantlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlari tahlil qilinib, ularni takomillashtirish istiqbollari yoritilgan.

Mazkur bobning *“O‘zbekistonda migrantlar huquqlarini himoya qilishning muammolari”* ga bag‘ishlangan birinchi paragrafida O‘zbekistonda migrantlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish, shuningdek, xalqaro-huquqiy standartlar va ularni milliy qonunchilikka implementatsiya qilishning xususiyatlari ochib berilgan.

O‘zbekistonda migrantlar huquqlarini himoya qilish va migratsiya jarayonlarini boshqarishda milliy institutlar muhim o‘rin tutadi. Prezident migratsiya siyosati, fuqarolik va siyosiy boshpana berish masalalarida vakolatga ega bo‘lib, bu siyosat davlat ijtimoiy barqarorligiga bevosita ta’sir qiladi.

Oliy Majlis palatalari migratsiya qonunchiligini ishlab chiqish va odam savdosi hamda majburiy mehnatga qarshi kurashishda muhim rol o‘ynaydi. Parlament nazorati migratsiya siyosati samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi, sud hokimiyati esa qonun ustuvorligini ta’minlab, migrantlar huquqlarini kafolatlaydi.

Ijro organlari, jumladan, Vazirlar Mahkamasi va Tashqi ishlar vazirligi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda migrantlarning manfaatlarini himoya qilishda muhim o‘rin tutadi. Ombudsman instituti esa migrantlar va ularning oila a’zolari huquqlarini ta’minlash orqali inson huquqlarini himoya qilishda faol ishtirok etadi. Bu institutlarning uyg‘un faoliyati migratsiya siyosatining samaradorligini oshiradi.

O‘zbekistonning xorijdagi konsullik muassasalari mehnat migratsiyasi masalalari bo‘yicha fuqarolarga yordam ko‘rsatadi va ularning huquqlarini himoya qiladi. Attashe lavozimining joriy etilishi migratsiya jarayonlarini samarali boshqarish va noqonuniy migratsiya xavfini kamaytirishga yordam beradi.

O‘zbekiston migratsiyani tartibga solishda BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga va Global migratsiya shartnomasiga muvofiq milliy siyosat yuritmoqda. Milliy harakatlar rejasi migrantlar huquqlarini va gender tenglikni ta‘minlashni, shuningdek, migratsiya jarayonlarini samarali boshqarishni ko‘zlaydi.

Migratsiya bo‘yicha global shartnoma maqsadlariga erishish uchun O‘zbekiston Respublikasida 2024-2030-yillarga mo‘ljallangan Milliy harakatlar rejasini qabul qilish zarurati mutaxassislar o‘rtasida o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar natijalari bilan isbotlangan (jumladan, anketa so‘rovida qatnashgan migratsiya sohasi mutaxassislarining 50 foizdan ortig‘i mazkur taklifni ma‘qullashini ma‘lum qilgan).

Dissertantning fikricha, O‘zbekiston migrantlar huquqlarini himoya qilishda muhim qadamlar qo‘ygan bo‘lsa-da, qonunchilikni yanada takomillashtirish va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish zarurati mavjud. Hukumat va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligi migratsiya jarayonlarini samarali boshqarish va migrantlar huquqlarini ta‘minlashga yordam beradi. Bu yo‘nalishda Milliy harakatlar rejasining qabul qilinishi migratsiya jarayonlarini samarali boshqarish va migrantlar huquqlarini kafolatlash uchun huquqiy va tashkiliy asos yaratadi.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafi *“Migrantlar huquqlarini himoya qilishning milliy mexanizmlarini takomillashtirish istiqbollari”*ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining migratsiya sohasidagi muammolari tahlil qilingan hamda milliy tizimni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

